

**MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR MUVOZANATINI TA'MINLASH  
MUAMMOSI**

**Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna**

*TDYU huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyi Tillar kafedrasida bosh o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) e-mail:*

*zafarbekismatov@gmail.com Tel: +99899 728 05 58*

**Abdulxamidova Fotimaxon Ulug'bek qizi**

*TDYU huzuridagi Namangan akademik litseyi*

*2-kurs 203-guruh o'quvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini ta'minlash muammosi qanday hal qilinayotgani haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *milliy va umuminsoniy qadriyatlar, davlat siyosati, davlat tashkilotlari, muvozanat.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается, каким образом в Узбекистане решается проблема обеспечения баланса между национальными и общечеловеческими ценностями.*

**Ключевые слова:** *национальные и общечеловеческие ценности, государственная политика, государственные организации, баланс.*

**Annotation:** *This article examines how the problem of ensuring a balance between national and universal human values is addressed in Uzbekistan.*

**Keywords:** *national and universal human values, state policy, state organizations, balance.*

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanati, bir davlatning siyosati, huquqi va boshqa sohalaridagi amallarining, tadbirlarining, qarorlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarga ta'sirini ifodalaydi. Bu muvozanat, har bir fuqaroga o'z huquqlari va erkinliklari haqida bilish uchun zarur bo'lgan informatsiya manbayi hisoblanadi.

Bu muammoni hal qilish uchun, davlat tashkilotlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida tushunchalarni oshirishga yordam berishi kerak. Odatda bu tushunchalar tarixiy, milliy xususiyatlarga bog'liq bo'lib, ularning o'zaro aloqalari bilan aloqador bo'ladi. Davlat tashkilotlari hamda jamiyat umumta'minoti o'zaro hamkorlik qilish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini ta'minlashga harakat qilishi kerak. Bundan tashqari, huquqi manbalardagi to'g'ridan to'g'ri tushunchalar ham yaxshi ta'minlanishi kerak. Huquq shakllanishida keng tarqalgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar talab qilinishi mumkin. Shuningdek, jamiyatda rivojlanayotgan ijtimoiy va siyosiy yangiliklarga yaxshi ta'sir ko'rsatuvchi media kanallari ham muhim ahamiyatga ega.

Bularning yanada oshirilishi va mustahkamligi uchun, milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini ta'minlashni qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy tizimning yanada rivojlanishiga investitsiya qilinishi zarur bo'ladi. Bu esa davlat tomonidan

maqsadli siyosatlar, huquqiy manbalardagi yangiliklar va moliyaviy resurslar ishlatilgan holda amalda saqlanishi mumkin.

Jamiyatning hayotiyligi va samaradorligini ta'minlovchi jihat huquqiy davlatdir. Usiz jamiyatni idrok etib bo'lmaydi. Shu ma'noda sarkarda Amir Temurning: «tajriba menga shuni ko'rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o'zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo'lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o'xshatish mumkin. Shuning uchun men o'z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o'zim qat'iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim»<sup>42</sup>, – so'zlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Islom nafaqat qonunlarning ustuvorligini ta'minlaydi, balki jamiyatni jamiyat qilish omili bo'lmish birlashtiruvchilik vazifasini ham bajaradi. Buni biz ilk islom dini vujudga kelgan VII asr tarixida ham ko'rishimiz mumkin. «Islom dini birlashuvni mafkuraviy tasdiqlovchi, oqlovchi bo'ldi: hamma uchun bab-baravar prinsiplar, millatlarning etnik kelib chiqishiga qaramay, din oldida hammaning huquq tengligi arablar oldida katta imkoniyatlar tug'dirdi»<sup>43</sup>.

Islom sivilizatsiyasi hukmron bo'lganligi bilan alohida ajralib turadigan mamlakatlar va mintaqalar boshqa sivilizatsiyalarda o'xshashliklarga ega bo'lgan bir qator milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosini o'zida aks ettiradi. Qolaversa, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida konseptual va terminologik, mazmunli, mantiqiy va semantik xususiyatlar bo'yicha sezilarli farqlar ham mavjud. Ba'zan tashqi o'xshash belgilar bo'lsa ham, sivilizatsiyalar o'rtasidagi farqlarni ajratish ancha murakkab hisoblanadi. Ushbu holat islom sivilizatsiyasining milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zida aks ettirganligi bilan xarakterlanadi.

G'arb jamiyatlarida demokratik qadriyatlar, inson huquqlari axloqiy tanazzul bilan belgilanadi. Buning yorqin isboti sifatida amerikalik taniqli siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy quyidagi so'zlari orqali Amerika demokratiyasi va uning madaniy institutlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlab: «Amerika ommaviy madaniyatining g'ayrioddiy jozibasi asosida Amerika demokratiyasi yotadi. ... Bu ochiq, tashabbuskor va yuqori raqobatdosh Amerika demokratik tizimlarining dinamik mahsulidir»<sup>44</sup>, – deydi.

Natijada demokratlashtirish jarayoni mafkuralashtirila boshlandi va shu sababli o'z universalligini yo'qotdi. Axir inson erkinligi g'oyasi har qanday madaniyat yoki sivilizatsiya mahsuli emas, balki har bir millat va elatlar uchun umumiy g'oyasi hisoblanadi-ku. Avtoritar rejimlar bundan foydalanib, demokratlashtirishni o'ziga xos tarzda amalga oshiradilar. Madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi ziddiyatlarni sun'iy ravishda demokratlashtirish jarayonlariga o'tkazish demokratik ideallarga bo'lgan ishonchni susaytiradi. Natijada kuchli mafkuraviy bosim ostida, davlatning tashviqot mashinasi ta'sirida qolgan oddiy fuqarolar yolg'on g'oyalar qurboniga aylanishadi. Hech qanday demokratik ideallarga tegishli bo'lmagan soxta demokratik rejimlar paydo

<sup>42</sup>Ўтамуродов А., Ҳасанов Р. Фуқаролик жамияти: ғоялар эволюцияси (Шарқ ва Ғарб мутафаккирлариталқинида) Услубий қўлланма. // «Фуқаролик жамияти» фанидан дарс ишланмаси (иккинчи китоб). – Тошкент: МРДИ, 2017. – Б.12.

<sup>43</sup>Фозила Сулаймонова. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б.189.

<sup>44</sup>Бжезинский З. Выбор: Мировое господство или глобальное лидерство- Москва: Международные отношения, 2007. – С.231-232.

bo'ladi. Umuminsoniy demokratik qadriyatlar emas, balki an'anaviy qadriyatlar bunday rejimlar uchun asos vazifasini bajaradi.

Shuning uchun g'arb davlatlaridan boshqa mamlakatlarda demokratlashtirish jarayoni demokratik qadriyatlarning an'anaviy qadriyatlar bilan dialektik aloqasi va ularni to'ldirishga bo'lgan ehtiyoj yuqoridir. Ammo an'anaviy qadriyatlar demokratik ideallar «tahlilini» o'tkazganda, biz ularning bir tomonlama ma'no-mazmun kasb etishini anglab olamiz. Avtokratik rejimlarda «ko'pchilik hukmronligi va ozchiliklarning huquqlari» demokratik prinsipi mavjud an'anaviy qadriyatlar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ushbu rejimlar inson huquqlariga zid qarorlar qabul qilishda ushbu prinsipga asoslanadi. Shunga o'xshash holatlarni hatto demokratik huquqiy davlat deb tan olingan mamlakatlar hayotida ham ko'rish mumkin. Masalan, dunyodagi eng yirik davlat bo'lgan Hindistonda oiladagi zo'rvonlik hali ham jinoyat hisoblanmaydi. Demokratik tamoyillar o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'lganda tanlov an'anaviy qadriyatlar foydasiga amalga oshiriladi.

Albatta, an'anaviy qadriyatlar demokratik qadriyatlarga zid bo'lmasligi mumkin. Masalan, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla) tarkibida mahalladagi ba'zi oila a'zolarini yarashtirishga va ularning qonuniy huquqlari va talablarini qondirishga (og'ir jinoyatlar bundan mustasno) oid mahalla faollarini o'z ichiga olgan yarashuv instituti mavjud. Bunday mexanizm asosida loqaydlik va beparvolik asosida sodir etilgan huquqbuzarliklarning ijtimoiy oqibatlarining oldini olishi mumkin, shuningdek, agar huquqbuzar oilada asosiy boquvchi bo'lsa, bunday mexanizm hibsga olish paytida uning oilasi manfaatlari himoyasidan kelib chiqib muhokama qilinadi. Yuqorida aytib o'tilgan institutlar qonunchilik institutlari bilan o'zaro hamkorlikda inson huquq va erkinlarini himoya qilishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

«Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5415-sonli farmonda «huquqiy demokratik davlat va adolatli jamiyatni qurish jarayonida, birinchi navbatda, yagona davlat huquqiy siyosatini, jumladan huquq ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlash»<sup>45</sup> deb bayon etilgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, qonun ustuvorligini himoya qilishga qaratilganligi bilan ham alohida ajralib turadi. Ushbu jarayonda qonunlar va me'yoriy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tomonidan e'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari ham adolatli jamiyat qurishda inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishga katta yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatimiz va huquqiy tizimimiz o'rtasidagi munosabatlar, umumbashariy qadriyatlar milliy, diniy qadriyatlarimiz asosida siyosiy hayotimizga kiritilgan. O'zbekiston jahon hamjamiyatining faol a'zosi sifatida ko'plab global muammolarni hal qilishda faol rol o'ynamoqda. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning

<sup>45</sup> Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент. 2018. – Б.75.

sa'y-harakatlari tufayli jahon siyosatida O'zbekiston davlatining takliflari deyarli barcha xalqaro masalalarda iliq qabul qilinmoqda va uning zamonaviy dunyoda konstruktiv mavqei, munosib o'rni doimiy ravishda oshib bormoqda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivojida islomiy qadriyatlar ularning mazmun-mohiyatini yanada boyitgan. Ayniqsa, xalqimiz milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining takomillashib borishida islom dini keltirgan ezgu insonparvar g'oyalar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Islom dinining mintaqamizga kirib kelishi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimini tubdan yangiladi, islom dini rahnamolarining ilm-fanga bo'lgan alohida e'tibori tufayli zaminimizdan ko'plab mutafakkirlar, qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Shuningdek, bunyodkorlik taomiliga ko'ra mamlakatimizda ko'plab me'moriy obidalar, shaharlar bunyod etildi. Din shunchaki spekulativ dogmalar va axloqiy ko'rsatmalar to'plami emas, balki ommaviy ong tajribasi, ko'p asrlik axloqiy va psixologik meros bilan bevosita bog'liq bo'lgan madaniyat qatlami hisoblanadi. Bu ijtimoiy faoliyatning o'ziga xos turini, turmush tarzi, marosim va bayramlarni, urf-odatlar va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni asoslovchi universal «hayot haqidagi fan»dir. Boshqacha qilib aytganda, bu kundalik ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, uning imonlilar oldida eng yuqori sanksiyasi va asosidir. Axloq dinning asosiy tarkibiy qismidir, chunki din nafaqat mafkura, dunyoqarash, balki xulq-atvor munosabatlari, qadriyat yo'nalishlari, balki turmush tarzi hamdir.

Uzoq tarixiy davrda din milliy jamoalarning shakllanishida muhim rol o'ynadi. Jumladan, VIII asrlarga kelib, O'rta Osiyo xalqlarining etnik psixologiyasi, ularning kundalik hayotiy tajribasini belgilaydigan elementlari, qadriyat yo'nalishlari islom ta'siri ostida qayta shakllandi. Din doimo insoniyat mavjudligining tugun nuqtalarini (tug'ilish, nikoh, dafn marosimini) g'ayritabiiy voqelikka bog'lab, insonning hayot yo'nalishlarini ilhomlantirdi. Bu borada islom dini qadriyatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Islom dinida Xudodan tashqarida yaxshilik ham, yomonlik ham yo'q, har kim xohlasa ham, xohlamasa ham, boshqacha fikr yuritsa ham, mutlaqo qudratli xudoga bo'lgan imon chegaralaridan chiqib ketmasligi kerakligi ta'kidlanadi. Xudo mehribon va rahmdil, shu boisdan ham har bir musulmon kishi mehribon va rahmdil bo'lishi shart. Shu nuqtai nazardan qaraganda, «dunyoviy va diniy qadriyatlar insonlar ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanib, mushtarak tarzda insonning hayotga, jamiyatga, jamiyat a'zolariga munosabatini namoyon qiladi. Dunyoviy qadriyatlar ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odati, an'alarini, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tomonlarini qamrab olsa, diniy qadriyatlar diqqat markazida inson va insoniylik masalasi asosiy o'rin tutadi»<sup>46</sup>.

Umuminsoniy, diniy va islomiy qadriyatlar tushunchalari umumiy, xususiy va individual dialektik kategoriyalar bilan bir xil dialektik o'zaro aloqada bo'ladi. Bu har bir dialektik juftlik toifalari qarama-qarshiliklarning birligi ekanligi ham bizga ma'lum. Masalan, umumiylik va yakkalik, boshqa har qanday boshqa toifadagi juftliklar singari, bir tomondan, bir-birini istisno qiladi, ikkinchidan, alohida mavjud bo'lmaydi. Bundan

<sup>46</sup> <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=2777>

tashqari ma'lum sharoitlarda ular o'zaro konversiyani amalga oshirishga qodir, ya'ni yakkalik umumiy bo'lib, umumiy esa yakka bo'lishi mumkin. Shu boisdan turli xil postindustrial, axborotlashgan, postmodern va boshqa jamiyatlar deb ataladigan zamonaviy davr o'ziga xos dualizmni namoyish etadi. Bular, bir tomondan, madaniy, ijtimoiy, kasbiy va individual qadriyatlarning g'ayrioddiy xilma-xilligi, boshqa tomondan esa doimiy oddiy mavjudotning umumiy insoniy qadriyatlarini izlashga urinishdir. Ba'zi bir qadriyatlarni «mutlaq», «umumbashariy», «umumbashariy ahamiyatga ega», «umurboqiy» deb e'lon qilish ularni ko'pincha boshqa qadriyatlarga nisbatan ziddiyatli holatga keltiradi. Bunday vaziyatda mutlaq yoki umuminsoniy qadriyatlar, ularni yaratish sohasi va islomdagi qadriyatlar muammosini ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etishiga sabab bo'ladi.

Islom dunyo dini sifatida turli xil xalqlarning milliy, irqiy yoki madaniy xususiyatlarini diniy qadriyat sifatida tan olmaydi, shu bilan birga odamlarni quyidagi toifalarga ajratadi: musulmonlar, ahli kitob, nasroniylar va mushriklar. Shunga ko'ra, musulmon ummatlari ichida tinchlik va totuvlik, muqaddas kitoblar ahliga nisbatan bag'rikenglik, mushriklarga nisbatan esa jihod hukmi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, din qadriyatlari, shu jumladan dunyo qadriyatlari mazmunan axloqiy qadriyatlar bilan mos keladi. Ularning orasidagi tub farq shundan iboratki, din me'yorlari g'ayritabiiy mavjudot – Xudo tomonidan vakolat berilgan va axloq g'ayritabiiy tajribalar asosida butun jamiyatdan uning har bir a'zosiga nisbatan o'rnatilgan me'yorlar to'plamiga asoslanadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, dinlarda umuminsoniy shakllanish, sinfiy, etnik, global va mahalliy qadriyatlarning tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shu munosabat bilan dunyoviy va diniy qadriyatlarning ahamiyati har qanday muassasalar, guruhlar, partiyalar, rahbarlar faoliyatining uning insonparvarlik qadriyatlarini tasdiqlashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Shu o'rinda an'anaviy urf-odatlar ma'lum bir davr talablariga javob bermasa, ularning o'rnini demokratik qadriyatlar egallashini ham ta'kidlab o'tish lozim. Yoki an'anaviy qadriyatlarga nisbatan demokratik qadriyat qaysidir ma'noda betaraf bo'lsa yoki ularni to'ldirsa, u holda amalda qo'llaniladi. Aksincha, agar ozchilik huquqlari kabi demokratik qadriyatlar an'anaviy qadriyatlarga zid bo'lsa, ular rad etiladi (masalan, abort qilish huquqi yoki bir jinsli nikoh) yoki ma'lum cheklovlar bilan amalga oshiriladi. Masalan, yaqinda Saudiya Arabistonida ayollarning mahalliy munitsipalitetlarga saylanishiga qo'yilgan taqiq bekor qilindi. Yoki ko'plab musulmon mamlakatlarida ayollarga universitetlarda o'qish kafolatlangan, ammo ularning ish bilan ta'minlanishi muammosi hali hanuz yetarlicha qonuniy yo'l bilan hal qilinmagan.

Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarda jamiyat institutlari bilan erkin raqobatlasha oladigan bunday an'anaviy institutlar ham mavjud. Sharqning ko'plab mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlari funksiyalarini mustaqil ravishda bajarishi mumkin bo'lgan mahalliy jamoalarning o'ziga xos boshqaruv usullari mavjud. Masalan, O'rta Osiyoda (ayniqsa, O'zbekistonda) mahalla instituti ana shunday muassasalar qatoriga kiradi. Demokratiyaga o'tish davrida tubdan yangi institutlarni joriy qilishdan ko'ra eski

tipdagi institutlarni isloh qilish maqsadga muvofiqdir. G'arbdagi faol nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu jamiyatlardagi dinamizmga mos keladi. Shuning uchun bugungi kunda jamiyatni rivojlantirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini ta'minlash diqqatga sazovordir.

Diniy bag'rikenglik g'oyalari diniy ta'limotlarga ham chuqur singib ketgan. Har bir din o'z-o'zidan haqiqat asosini belgilashi bilan birga mafkuraviy tizim va boshqalarning qadriyatlar tizimiga nisbatan bag'rikenglik va hurmat elementlarini ham o'zida namoyon etadi. Barcha dinlar umumiy g'oyaviy va tizimli qadriyatlarga ega. Ular o'rtasidagi tafovutlarga kelsak, ular dinlarning bir-birini to'ldirishi uchun yaxshi shartlarni yuzaga keltiradi. Binobarin, dinlar o'rtasidagi tafovut jamiyatning turli diniy va konfessional guruhlarini mafkuraviy-tizim-qadriyat ma'nosida bir-birini to'ldirish va boyitish uchun jiddiy shart-sharoitlarni yaratadi. Dinlardagi turli xilliklar mos kelmaslikni anglatmaydi. Tafovutlar va mos kelmaslik mutlaqo boshqa hodisa va tushunchalar bo'lib, turli dinlar bir-biriga mos kelishi, bir jamiyatda tinch va samarali hayot kechirishi mumkin. Bu haqida Jan Jak Russo shunday yozadi: «Hozirgi ayyorona chapdastligimiz, nozik didimiz, birovga yoqishdagi ustomonligimiz ma'lum tamoyillarga aylandi. Axloqimizda tuban darajadagi soxtalik hukmron bo'ldi, aqlimiz esa xuddi bir qolipdan chiqqanday: hushmuomalalik doimo bir narsaning ilinjida, odob saqlash xuddi buyruqdek, urf-odatlariga tinimsiz ergashamiz, o'z aqlimiz, vijdonimizga esa bo'ysunmay qo'ydik. Odamlar o'zlarining haqiqiy basharalarini ko'rsatishga jur'at eta olmayaptilar, Doimo shunday majburiyat ostida, jamiyat deb atalmish podaga birlashgan bir xil sharoitdagi bunday odamlar, qudratliroq biror sabab ularni bundan qaytara olmas ekan, shu tarzda yashayveradilar. Kim bilan muloqot qilayotganingni hech qachon bilmaysan: do'stingni kim ekanligini bilish uchun esa jiddiyroq va kattaroq hodisa ro'y berishi kerak, uni kutish uchun esa vaqt yo'q, holbuki o'sha hodisa tufayligina do'sting kim ekanligini yaxshiroq bilib olasan. Bunday ishonchsizlik ketidan qanchadan-qancha yomonliklar chuvalashib kelmoqda. Na chin do'stlik, na haqiqiy hurmat, na komil ishonch bor».

Davlat-fuqarolik tizimida turli xil diniy va konfessiyaviy guruhlar o'rtasidagi umumiylik, ushbu guruhlar bir vaqtning o'zida turli millatlarga mansub bo'lgan hollarda, birinchi o'ringa chiqadi, fuqarolik va bitta jamiyatga mansubligi ta'kidlanadi. Turli xil diniy va konfessiyaviy guruhlariga ular bir xil yoki har xil muammolarga (ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va boshqalar) duch kelishi, umumiy manfaatlari va talablari, umumiy vazifalari borligi haqidagi fikrlar tushuntiriladi va yetkaziladi, bu ham muhim va shartlidir. Shu boisdan ham bugungi diniy-konfessional tizimda jamoatchilik birdamligini ta'minlash va jamiyatdagi nizo va ziddiyatlarni bostirish uchun jamiyat barqarorligi va xavfsizligini kafolatlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Milliy tizimda turli xil diniy va konfessiyaviy qatlamlarning mushtarakligi diniy va konfessional emas, balki etnik hamjihatlikni ta'minlaydi. Bunday holda konfessional xilma-xillik milliy birlikni buzmaydi. Birlik ushbu tarkibiy qismlar bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi, ularning asosiy motivi millat hisoblanadi. Ushbu yondashuv shuni anglatadiki, bir millat vakillari, u hoh musulmon, xoh pravoslav, nasroniy, katolik yoki protestant, mo'min yoki ateist bo'lsin, bir xalqning vakillari bo'lishdan to'xtamaydilar. Shunday qilib turli xil diniy va

konfessiyaviy qatlamlarning milliy hamjamiyatiga urg'u berish bilan bir xil etnik jamoaga mansublik ongi mustahkamlanadi, bu diniy bag'rikenglik va milliy-ijtimoiy birdamlik va jamiyatning konsolidatsiyasi uchun jiddiy asosdir. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 4-sentyabrdagi «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»<sup>47</sup> gi Qaroriga binoan kelajak avlodni Vatanga muhabbat ruhida, ilm-ma'rifatli, intellektual barkamol avlod etib tarbiyalash, uning diniy va dunyoviy qarashlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Jamiyatda diniy bag'rikenglikni turli diniy va konfessiyaviy guruhlarining o'zaro bilishi, qadriyatlar tizimini o'zaro idrok etish va o'zaro hurmat qilish orqali joriy etish va qo'llab-quvvatlash jamiyatdagi barqarorlik va xavfsizlikning asosidir. Jamiyat ongi va madaniyatini shakllantiruvchi turli xil diniy va konfessiyaviy tuzilmalar guruhleri – ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar o'rtasidagi mushtaraklik katta ahamiyatga ega va bu nafaqat diniy bag'rikenglik, balki jamoat birdamligi va konsolidatsiyasi uchun ham asosdir.

Maqola yuzasidan quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

birinchidan, jamiyatni rivojlantirish jarayoniga islomiy qadriyatlarning uzviy aloqadorligi, mosligini solishtirish orqali asrlar davomida rivojlanib borgan jamiyat va shaxsning qadriyat munosabatlariga mos kelishini aniqlash bugungi kunda hal etilishi muhim bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi;

ikkinchidan, umuminsoniy, diniy va islomiy qadriyatlar tushunchalari umumiylik, xususiylik va yakkaalik dialektik kategoriyalari bilan bir xil dialektik o'zaro aloqador hisoblanib, bu har bir dialektik juftlik toifalari qarama-qarshiliklarining birligini tashkil etadi. Masalan, umumiylik va yakkaalik, boshqa har qanday boshqa toifadagi juftliklar singari bir tomondan, bir-birini istisno qiladi, ikkinchidan, alohida mavjud bo'la olmaydi;

uchinchidan, bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlari funksiyalarini mustaqil ravishda bajarishi mumkin bo'lgan mahalliy jamoalarning o'ziga xos boshqaruv usullari mavjud. Xususan, O'zbekistonda mahalla instituti ana shunday muassasalar qatoriga kiradi. Demokratiyaga o'tish davrida tubdan yangi institutlarni joriy qilishdan ko'ra eski tipdagi institutlarni isloh qilish maqsadga muvofiqdir;

to'rtinchidan, davlat-fuqarolik tizimida turli xil diniy va konfessiyaviy guruhlar o'rtasidagi umumiylik ushbu guruhlar bir vaqtning o'zida turli millatlarga mansub bo'lgan hollarda birinchi o'ringa chiqadi. Turli xil diniy va konfessiyaviy guruhlariga ular bir xil muammolarga (ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va boshqalar) duch kelishi, umumiy manfaatlari, talablari va umumiy vazifalari borligi haqida fikrlar tushuntiriladi va yetkaziladi, bu esa muhim shartlardan biridir. Davlat hokimiyati organlari, inson huquqlari va boshqa jamoat tashkilotlarining umumiy vazifalaridan biri O'zbekistonda fuqarolar tinchligi va hamjihatligini ta'minlashga qaratilgan dinlararo muloqot va bag'rikenglikni ta'minlashdir.

<sup>47</sup>Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент. 2019. № 37. – Б.679.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўтамуродов А., Ҳасанов Р. Фуқаролик жамияти: ғоялар эволюцияси (Шарқ ва Ғарб мутафаккирлариталқинида) Услубий қўлланма. // «Фуқаролик жамияти» фанидан дарс ишланмаси (иккинчи китоб). – Тошкент: МРДИ, 2017. – Б.12.
2. Фозила Сулаймонова. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б.189.
3. Бжезинский З. Выбор: Мировое господство или глобальное лидерство- Москва: Международные отношения, 2007. – С.231-232.
4. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент. 2018. – Б.75.
5. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=2777>